BUXORO VILOYATINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISH

Akramova Obida Qosimovna
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
akramova3932@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tahlil qilinib va shu asosida investitsiyalarning hudud investitsion jozibadorligiga ta'siri hamda ahamiyati o'rganilgan. Shu bilan birga, Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsiya siyosati, investitsion jozibadorlik, mexanizmlar, iqtisodiy tarmoqlar, iqtisodiy salohiyat, investitsiya strategiyalari, hudud brendi.

Аннотация: В данной статье анализируются меры, которые необходимо предпринять для повышения инвестиционной привлекательности Бухарской области, и на этой основе изучается влияние и значение инвестиций на инвестиционную привлекательность территории. Одновременно разработаны предложения и рекомендации по совершенствованию механизмов повышения инвестиционной привлекательности Бухарской области.

Ключевые слова: инвестиции, инвестиционная политика, инвестиционная привлекательность, механизмы, секторы экономики, экономический потенциал, инвестиционные стратегии, брендинг территории.

Abstract: This article analyzes the measures that need to be taken to increase the investment attractiveness of the Bukhara region, and on this basis examines the impact and importance of investments on the investment attractiveness of the territory. At the same time, proposals and recommendations have been developed to improve the mechanisms for increasing the investment attractiveness of the Bukhara region.

Key words: investments, investment policy, investment attractiveness, mechanisms, economic sectors, economic potential, investment strategies, branding of the territory.

KIRISH

Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha muammolar, resurslar va tabiiy-iqlim omillari bilan bog'liq kompleks holatlar tufayli jiddiy ahamiyatga ega. Bu viloyat, tabiiy resurslari cheklangan va iqlim sharoitlari investitsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni taqdim etmaganligi sababli, investitsiya jalb qilishda dastlabki muammolarni boshdan kechirmoqda. Bunday hududlarni muvaffaqiyatli ravishda rivojlantirish

ISSN 3030-3907

uchun yangi strategiyalar va yechimlarni ishlab chiqish zarur.

Ushbu muammolarni hal etish jarayonida, hududlarning investitsion jozibadorligini yanada oshirishga qaratilgan yondashuvlarni joriy etish katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv, avvalambor, ma'lum iqtisodiy tarmoqlar va potentsial investorlar uchun aniqlangan maqsadli guruhlar ustida to‘planishimizni talab qiladi. Bunday tuzilmalarga asoslangan investitsiya siyosati va ustuvorliklar ro‘yxati, nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki mavjud resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mintaqalarning investitsion jozibadorligini oshirish masalalari xorijiy mamlakat olimlari Dj.D.Deniels, L.X.Radeba, Dj.Douns, Dj.Gudman, M.Moore, H.Schmitz, E.R.Voytovich, M. Grzelak, Z.Gamtenadze va boshqalarning ishlarida katta e’tibor qaratilgan. Shuningdek, respublikamiz olimlari tomonidan hududlarning investitsion muhit jozibadorligini boshqarish masalari G.Umarova, K.B.Tursunov, N.R.Rajabov va boshqalarning ilmiy ishlarida muayyan darajada o‘rganilgan.

Ushbu tadqiqotlar doirasida hududlarning investitsion jozibadorligining oshirish mexanizmlarini chuqur tahlil qilish va ularning samaradorligini baholash, iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, ushbu tadqiqot, hududlarni investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan yangi yondashuvlar va strategiyalarni ishlab chiqish orqali iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida mavzu bo‘yicha statistik ma’lumotlar va nazariyalarni o‘rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy kuzatish, tizimli yondashuv qo‘llanildi. Tahlil qilish davomida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish borasida mavjud muammolar, bu borada amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar bo‘yicha xulosa va takliflar shakllantirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tadqiqotimizda bunday mexanizmni ishlab chiqish, investitsiya siyosati vositalarini aniqlash va ularning mos ravishda qo‘llanilishini ta'minlash uchun zaruriy asoslarni yaratishga yordam beradi. Bu esa oxir-oqibat, hududiy rivojlanish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. Buxoro viloyatining iqtisodiy salohiyatini oshirish maqsadida yangi investitsiya strategiyalarini joriy etish, kelajakda mahalliy va chet el investorlarini jalb qilishda muhim omil bo‘ladi.

Buxoro viloyatining barqaror va muvaffaqiyatli rivojlanishini ta'minlash maqsadida, investorlarni jalb qilish bo‘yicha kompleks strategiyani ishlab chiqish zaruriyati tug'ilmoqda. Ushbu investitsiya strategiyasi, birinchi navbatda, Buxoro viloyatining asosiy investitsiya ustuvorliklarini aniqlashni o‘z ichiga oladi. Bu

ISSN 3030-3907

ustuvorliklar viloyatning iqtisodiy salohiyatini, resurslarini va mavjud infratuzilmasini hisobga olgan holda belgilanishi kerak.

Shuningdek, qulay investitsiya muhitini shakllantirish va yanada rivojlantirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlardan iborat kompleks tadbirlar rejasini ishlab chiqish muhimdir. Bu chora-tadbirlar tarkibiga investorlar uchun kutilayotgan samaralar va imkoniyatlarni oshirishga qaratilgan davlat rag'batlari, soliq imtiyozlari va boshqa qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kiritilishi kerak.

Bundan tashqari, investitsiya strategiyasining amalga oshirilishi uchun aniq yo‘l xaritasi taklif etish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yo‘l xaritasi taklif etilayotgan investitsiya loyihalari, muddatlar, mas'ul shaxslar va zaruriy resurslarning batafsil tavsifini o‘z ichiga olishi kerak. Investitsiya strategiyasi va yo‘l xaritasi Buxoro viloyatining iqtisodiy holatini mustahkamlash va ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi.


Tahlillar jarayonida yuzaga kelgan muammolar hamda xalqaro tajribalar asosida investitsiya muhitini yaxshilash bo‘yicha bir qator o‘zaro bog'liq tavsiyalar ishlab chiqildi. Ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- Buxoro viloyatining brendini yaratish va yanada kengaytirilgan targ'ibot strategiyasini ishlab chiqish: Bu jarayon orqali hududning investitsion jozibadorligini oshirish va xalqaro miqyosda uning taniqliligini kuchaytirish nazarda tutiladi.
- Sanoat parklari tizimini yaratish: Ushbu tizimni yaratish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani ishlab chiqish hamda energiya resurslarini yangi qurilayotgan maydonchalarga etkazib berish muhim ahamiyatga ega. Bunday yondashuv raunonli ishlab chiqarish ekotizimlarini shakllantirish imkonini beradi.

Buxoro viloyatiga investorlarni jalb qilish bo‘yicha aniq va samarali yo‘l xaritasini ishlab chiqish lozim: Ushbu yo‘l xaritasi investitsiya hududiy strategiyasini amalga oshirish uchun zaruriy chora-tadbirlarni ko‘rsatadi. Bunday tavsiyalar, mintaqada investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish, hududiy raqobatbardoshlikni oshirish va investorlar uchun qulay muhit yaratish maqsadida muhim ahamiyatga ega.

Buxoro viloyati hududlarining investitsion jozibadorligini oshirishga yordam beradigan asosiy vositalarni taklif qilamiz. (3.1-rasm)

ISSN 3030-3907



3.1-rasm. Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmi[5]

Yuqoridagi rasmda Buxoro viloyatining investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmini shakllantirilganki, unda Buxoro viloyatining har bir shahar (tuman)

[5] Muallif ishlanmasi

ISSN 3030-3907

brendini shakllantirish va targ'ib qilish orqali investorlarni jalb qilish maqsadga muvofiq deb topilgan. Buning uchun hudud salohiyati va xavf darajasi aniqlanadi va shunga asosan hududning investitsion jozibadorlik reytingi shakllantiriladi. Shunga asosan mavjud xavflarni ilmiy asoslagan holda oldindan bashoratlash va hududda investitsion xavflarni kamaytirish bo‘yicha strategiyalarni qo‘llash taklifi berilgan. Mexanizm ishlashi uchun tumanlarda ayniqsa, jozibadorligi past hududlarda infratuzilma obyektlarini rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqish lozim. Zanjir sifatida infratuzilma obyektlarini rivojlantirish uchun esa yashil loyihalarni past jozibador hududlarga kiritgan investorlarga alohida imtiyoz ajratish va ularni rag'batlantirish katta samara beradi. Chunki, hozirgi kunda yashil iqtisodiyot doirasida yashil loyihalarni rivojlantirishga e’tibor qaratilmoqda. Yashil loyihalar tapkibida yashil energiya manbalarini foydalanish ustunlik qilishini inobatga olib, past jozibador hududlarga har bir kiritilgan investitsiyalarni rag’batlantirilsa, kelajakda samarasini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, hududlarning investitsion jozibadorligini oshirish mexanizmi, o‘z navbatida, hududlarga investorlarni jalb qilishni maqsad qilib qo‘yadi. Ushbu mexanizm orqali yurtimizning investitsiya muhitini yanada takomillashtirish va investorlar uchun qulay sharoitlar yaratish imkonini beradi. Mexanizmda keltirilgan parametrlar to‘g'ri amalga oshirilsa, har qanday investorni qiziqtirishi va ularning investitsiya qarorlarini samarali ravishda shakllantirishi mumkin. Shuningdek, ushbu parametrlar investorlarning risklarini kamaytirish va ular uchun yangi imkoniyatlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Дэниелс Д. Д., Радеба Л. Х. Международный Бизнес: Внешняя Среда И Деловые Операции: Учебник: Пер. С Англ. – Дело Лтд, 1994.
2. Доунс Д., Гудман Д. Э. Финансово-инвестиционный словарь. 3-е изд //М.: Инфра-М. – 2017. – С. 255. Moore M., Schmitz H. Idealism, realism and the investment climate in developing countries. – 2008.
3. Умарова Г. Инвестициялар жозибадорлиги ва уни бошқаришнинг услубий жиҳатлари //iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 210-216.,
4. К.Б.Турсунов, Н.Р.Ражабов. Инвестицион муҳит жозибадорлигини бошқаришни такомиллаштириш. Монография. - Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2021, 212 бет.
5. Акрамова О. К. Model for assessing the investment attractiveness of regions //Современные инновации, системы и технологии-Modern Innovations, Systems and Technologies. – 2024. – Т. 4. – №. 2. – С. 0257-0264.
6. Акрамова О. К. Improvement of assessment system of investment

ISSN 3030-3907

attractiveness of regions //Информатика. Экономика. Управление-Informatics. Economics. Management. – 2024. – Т. 3. – №. 2. – С. 0115-0125.

7. Akramova O.K. Ensuring investment security as an autonomous factor in increasing investment attractiveness. Informatics. Economics. Management. 2022; 1(2): 0208-0216. https://doi.org/10.47813/2782-5280-2024-3-1-0401-0410
8. Ochilov Sh. B., Boboev A. Ch., Akramova O. K. Ways to increase the investment attractiveness of regions by reducing investment risks in agriculture. Informatics. Economics.Management. 2024; 3(1): 0401-0410. https://doi.org/10.47813/2782-5280-2024-3-1-0401-0410
9. Rasulova, N. N., & Jumaeva, Z. K. (2019). Uzbekistan oil and gas industry: history and development prospects. *Теория и практика современной науки*, (5 (47)), 52-57.

ISSN 3030-3907